



CHANG CHOLG'USI TARIXIGA BIR NAZAR

G'aniyeva Feruza Omon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

San'atshunoslik fakulteti

Musiqqa ta'limi va san'at yo'nalishi

1-kurs magistranti

tvsplcdrr@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada chang cholg'usi tarixi, o'ziga xosligi, chang cholg'usining tuzilishi haqida qadimgi buyuk olimlarni va hozirgi taniqli arboblarning fikrlari, torlari, ovoz diapazoni va ijrochilik imkoniyatlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: chang cholg'usi, arfa, qo'l arfasi, o'zbek mumtoz musiqasi, maqom yo'llari, sayqal, rekonstruksiya.

Abstract: This article describes the history of the khangu, its uniqueness, the thoughts of great ancient scholars and contemporary figures about the structure of the khangu, its strings, sound range and performance capabilities.

Keywords: khangu, harp, hand harp, Uzbek classical music, maqom paths, reconstruction.

O'zbek xalqining musiqqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Musiqiy cholg'ular dunyosi ham sekin astalik bilan oddiylikdan murakkablikka ko'tarilib borgan. Shuni aytishimiz kerakki, manbalarda musiqiy cholg'ularning tarixi juda qisqa, ba'zi lavhalardagina keltirilgan. Tarixda musiqalarni yozib oladigan vositalar



bo'lmaganligi sababli, o'tmishdagi cholg'ularning qanday sadolanishi haqida tasavvurga ega emasmiz. Ma'lumotlarga ko'ra XV-XII asrlardan boshlab "Chang" so'zi hayotimizga kirib kelgan. Chang deb nomlanguniga qadar "chang" iborasi o'zbek va tojiklarda butunlay boshqacha soz ya'ni tirnab chalinadigan arfa cholg'usi Yevropada katta hajmda qo'llanilgan, bizda esa kichik hajimdagisini ishlatilganligi namuna bo'lgan. Buyuk mutafakkir olim Alisher Navoiy o'zining buyuk asari bo'lmish "Hamsa"ning "Sabbai Sayyor dostonida "chang" iborasi ya'ni qo'l arfasi haqida keltirib o'tgan. Uning mohir sozandasi go'zal Dilorom obrazlarini juda chiroyli tasvirlab bergan. Dostonni boshlanishidan Dilorom chang chalishi haqida shunday degan "Osmon sen tufayli sayr etuvchi yer esa osoyishta, falakdagi Baxrom g'azabnok, Zuxraning Diloromi esa chang chaluvchidir"¹. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki o'sha davrlardagi arfasimon chang cholg'usi faqat xotin-qizlarga mansub cholg'u hisoblangan. Biroq XVII-asrlardan keyin qo'l arfasi takomillashtirilib, o'rnini banbuk daraxtidan tayyorlanilgan tayoqchalar bilan urib chalinadigan trapetsiya shaklidagi chang cholg'usi egalladi. O'rta asrlarda chang cholg'usida o'zining ijro mahoratini ko'rsatgan oxirgi sozandalardan biri Darvishali Changiydir. Darvishali Changiy (Darvish Aliyi Changiy al-Xoqoniy ibn Mirzo Ali Changiy ibn Abdulali Qonuniy ibn Xo'ja Abdullo Muhammad Marvarid). Changiy XVIII-asrlarda yashab ijod qilgan hofiz, musiqashunos, bastakor va chang cholg'usining mohir ijrochisi hisoblangan. U o'zining sevimli cholg'usini "chang-cholg'ular kelinchagi, soz va nozlar parisidir"(3,69)-deya ta'riflab, uni torlari, ijro uslublari va xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Changiy yoshligidan musiqaga juda qiziqadi va juda ko'p ustozlardan saboq oladi. U o'ziga Changiy taxallusini olib, she'rlarini shu taxallus ostida yozadi. U she'rlar yozish bilan birgalikda chang cholg'usining tarixi haqida ham ma'lumot bergan. Ma'lumotlariga ko'ra chang 26 torda bo'lganligini aytgan. 26 torlik changda 7 ta lad bo'lgan va 7 ladida 7 maqom ijro etilgan.

¹ Navoiy A. Sabbai sayyor. Yangi asr avlodi. Toshkent 2021.3-bet.



- 1-laddan “Rost” maqomi boshlangan
- 2-laddan “Navo” maqomi boshlangan
- 3-laddan “Xijoz” maqomi boshlangan
- 4-laddan “Zangula” maqomi boshlangan
- 5-laddan “Husayniy” maqomi boshlangan
- 6-laddan “Kuchek” maqomi boshlangan
- 7-laddan “Iroq” maqomi boshlangan

Mohir changchilar esa 26 torlik changda 12 maqomni barchasini chalishga muvaffaq bo'lishadi. Chang cholg'usi o'zining jarangdorligi, murakkabligi va tembrining boyligi bilan qolgan cholg'ulardan farq qilib turgan. Olimlarni nazariyotchilarni va ko'p mashhur musiqashunoslarni o'ziga jalb qilgan.

O'tgan asrda chang juda mukammal cholg'u sifatida ko'rilmagan. U juda nozik tuzilishga ega bo'lib, kuchsiz bir xil diametrdagi metall simlarni tortishga mo'ljallangan. Oyoqlari bo'lmaganligi sababli yerda o'tirgan holatda ijro etilgan. Va yana shuni aytishimiz mumkinki u diatonik temperatsiyalanmagan.

Birinchi xromatik chang cholg'usi 1938-yilda S.Didenko, A.Kevxayantsa, va V.Romanchenkolar tomonidan yaratilgan. Ular Xamza nomidagi Toshkent davlat bilim yurti ustaxonasida chang cholg'usini xromatik tovush qatorini birinchi oktava “do”dan uchinchi oktava “re” diezgacha takomillashtirishgan.

Chang cholg'usi-trapetsiya shaklida bo'lib, temir simlari xarraklar ustidan tortilib chap tarafi temir ilmoqlarga, o'ng tarafi temir quloqlarga birlashtirilgan. Ularni sozlash uchun alohida kalit mavjud. Chang cholg'usi banbuk daraxtidan yasalgan bo'lib, qulay chalish uchun uchta oyoqlari mavjud. Bu cholg'u uchida maxsus rezina bilan qoplangan tayoqcha bilan ijro qilindi. Bu cho'pchalar chang simlariga tekkanda jarangli, baland va uzoq cho'zilib turadigan ovozda sadolanadi. Shu sababli ovoz birdaniga so'nishi va dinamik belgilarni yanada bildirish uchun o'rta oyog'ining past qismida pedal turadi. Uning texnik jihatdan



qulayliklari, tovush ko'lamini kengaytirilib, diapazoni kichik oktava "sol"dan uchinchi oktava "sol"diezgacha bo'ladi.

Xalq cholg'u uslublarida chang cholg'usining o'zni beqiyos shu bilan birga an'anaviy uslubda ham o'z o'rniga ega. An'anaviy uslubdagi chang cholg'usiga ustoz Faxriddin Sodiqov o'zgartirishlar kiritadi.

1-qator: biri bas kichik oktava, ikkinchisi katta oktava. Ular "sol"kichik oktavadan, "fa"diez birinchi oktavagacha joylashgan.

2-qator: "Sol" birinchi oktavadan to "mi" ikkinchi oktavagacha joylashgan.

3-qator: "re" ikkinchi oktavadan to uchinchi oktava "do" gacha, keying tomoni "re"dan uchinchi oktava "mi"gacha joylashgan.

Shunday qilib bu changda "re" va "mi" ikkinchi oktava simlari ikkitadan iborat. Bu ijro vaqtida bezaklarni chalish jarayonini osonlashtiradi. Shuni aytishimiz joizki an'anaviy ijrochilikka chang sozini moslashda F.Sodiqovning xizmatlari katta.

Chang cholg'usi hozirgi kunda ham orkestr va ansambllarda o'z o'rniga ega. Orkestr va ansambllarda bu cholg'u asosiy fundament vazifasini bajaradi. Bu cholg'uning pirlari afsonaviy Dilorom Changiy va Darvishali Changiyalar hisoblangan. So'ngra esa o'tgan asrning boshlaridagi ustozlardan Matyusuf Xarratov chang cholg'usini takomillashtirish uchun ko'p ishlarni olib borgan. So'ngra esa o'g'illari Komil va Fozil Xarratovlar otasini ishini davom ettiradi. Hozirgi yosh avlodlar ustozlari Ahmad Odilov va uning shogirlari Rustam Ne'matov, Temur Mahmudov, Abdusalom Mutalov va ayol changchi ustozlardan Fazilat Shukurova hisoblanishadi.

Hozirda biz qo'llanadigan chang cholg'usi Yevropa va barcha Sharq davlatlari orasida keng tarqalgan. Bular O'zbekiston, Ozarbayjon, Tojikiston, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Yaponiya davlatlaridir. Chang cholg'usi Yevropa davlatlarida "simbal"deb atashadi. Biz foydalanayotgan chang cholg'usi quloqlari



76 ta bo'lib ular chang korpusining o'ng tomonida o'rnatilgan. Simlari xromatik sozga ega. Bu chang tut, yong'oq o'rik va boshqa yog'ochlardan yasaladi. Chang torlariga maxsus cho'p bilan urish orqali tovushlar hosil qilinadi. Shu sababli chang torli – urma cholg'ular guruhiga kiradi.

Chang cholg'usida asralarni yanada chiroyliroq chalish uchun maxsus bezaklar mavjud.

Bezaklar:

- | | |
|---------------|--------------|
| 1. Yakka zarb | 2. Qo'shzarb |
| 3. Qochirm | 4. Forshlag |
| 5. Mordent | 6. RRang |
| 7. Pirrang | 8. Rez |

Quyidagi bezaklardan forshlag chap qo'ldan boshlanadi. Chunki chap qo'lda kuchli hissa to'g'ri keladi va chap qo'l yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda aytishimiz joizki an'anaviy chang ijrochiligida ham bezaklarni qilishimizda chap qo'l asosiy bo'lib, o'ng qo'lda kuyning negizi ya'ni matni chalinadi. O'zbek xalq cholg'u bo'limidagi chang ijrochilari maktabidan "An'anaviy ijrochilik" maktabining farq qilish jihatlaridan biri ham aynan shudir.²

Yuqorida keltirilgan bezaklar chang cholg'usida o'zbek mumtoz kuylaridan bo'lmish maqomlar va uning yo'lida yaratilgan xalq kuy va ashulalarni ijro etishda eng zarur sayqallardir. Shu sababli har bir ijrochi o'zlashtirish vaqtida bu bezaklarni texnik jihatdan va kuy harakteridan kelib chiqib ham bu bezaklarni qo'llay bilishi lozim.

Xulosa qilib aytamizki ushbu maqolada qadimgi va xozirgi ilm arboblarning, chang cholg'usi tarixi haqida fikrlari bayon etildi. Qadimgi chang va rekonstruksiya

² Rozaxon Xaydarova. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" (Chang cholg'usi). Toshkent 2020. 50-bet.



qilingan chang haqida ma'lumot berildi. O'zbek xalq kuylarini balki maqomlarni ijro etishda zarur va xos bezaklardan foydalanish keakligi haqida keltirib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Odilov.A "Chang" O'quv qo'llanma 2002.
 2. Ismoilov.D Maxsus cholg'u.2015
 3. Rozaxon Xaydarova AN'ANAVIY CHOLG'U IJROCHILIGI "Musiqqa"
nashriyoti Toshkent 2020 y
 4. Navoiy A. "Sabbai sayyor".Yangi asr avlodi. Toshkent 2021.
- I.Rajabov. "Maqomlar masalasiga doir". Toshkent 1963